



UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISHDA MILLIY O'QUV DASTURINING AHAMIYATI

Nasirdinov Komoliddin Dagarovich

Fan va Texnologiyalar universiteti
ta'lim marketologi

komoliddin151713@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14810721>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Yanvar 2025 yil

Ma'qullandi: 28- Yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 31- Yanvar 2025 yil

KEY WORDS

Milliy dastur, ta'lim standarti,
PISA, PIRLS, TIMSS reytingi,
malaka talablari, STEAM
yo'nalishi

ABSTRACT

O'zbekiston ta'lim tizimida Milliy o'quv dasturining o'zbekona, xalqaro va zamonaviy xususiyat va talablar asosida ishlab chiqilishi va ta'lim taraqqiyotining rivojlanish bosqichlarida zamonga xos tarzda takomillashtirilishi bugunning muhim vazifasidir. Xalq ta'limi tizimidagi katta yangilanishlardan biri darsliklar va o'quv-metodik adabiyotlarni zamon talablariga mos shaklda ishlab chiqishdir. Bu yo'nalishda bugungacha ham o'ziga yarasha qoidalar, standartlar bo'lgan va ular o'z vaqtida o'zini oqlagan. Masalan, shu paytgacha umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari bu borada asosiy yo'lko'rsatkich vazifasini o'tagan. Lekin bugun ilm-fan, texnika, texnologiya shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda ta'lim sohasidagi har bir mutaxassis bu masalaga mas'uliyat bilan yondashishi zarur.

Hozir har bir soha muntazam islohotlar, yangilanish va yaxshilanishlar sari qadam qo'yimoqda, jumladan, ta'lim ham. Chunki dunyo ta'limi bugunning ehtiyojlari, mehnat bozorining talablariga moslashyapti. O'zgarishlar uchun esa mustahkam asos, poydevor kerak. Ta'lim sohasidagi standartlar dunyo mamlakatlarida turli shakl va uslublarga ega. Fransiya, Yaponiya, Italiya, Xitoy, MDH mamlakatlarida ta'lim markazlashtirilgan va standartlar butun mamlakat uchun yagona o'quv dasturlari va rejalar ko'rinishida joriy etilgan. Ana shu mamlakatlarda ham so'ngi 10–20 yil ichida ta'lim standartlari bo'yicha yangiliklar, yangicha yondashuvlar yuzaga keldi. AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada kabi ta'lim markazlashmagan mamlakatlarda ham ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mavjud. Masalan, Shvetsiyada o'quv dasturi fanlar bo'yicha o'quv soatlarini tartibga solinmaydi. U yerda standartlar 5 – va 9-sinf bitiruvchilari fanlar bo'yicha egallashi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarni belgilab beradi. AQSHda Ta'lim departamenti (vazirligi) bo'lsa-da, standartlarni ishlab chiqish haqidagi qarorlar shtatlar va ta'lim okruglari darajasida qabul qilinadi.

Ta'lim markazlashmagan mamlakatlarda standartlar dasturlarga emas, asosan o'quv fanlariga nisbatan o'rnatiladi. AQSHda ta'lim standartlari mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Mahalliy standartlar maktabdan keyingi ta'lim va ish beruvchi kutilmalariga mos kelishi, aniq, lo'nda va izchil bo'lishi, qat'iy mazmun va yuqori darajadagi ko'nikmalarni aks ettirishi, davlat standartlarining kuchli va ahamiyatli jihatlarini qamrab

olishi, o'quvchilar global raqobatga tayyor bo'lishi uchun baland ko'rsatkichlarga ega boshqa mamlakatlarning tajribalaridan xabardor holda ishlab chiqilishi va faktik ma'lumotlarga asoslanishi kerak.

Bunday vaziyatda dunyodan ortda qolmaslik uchun ta'lim sohasida jiddiy va samarali o'zgarishlar qilish zarur. Bu harakat esa mustahkam, puxta o'ylangan dastur asosida amalga oshirilishi kerak. Ta'limni isloh qilish bo'yicha keng amaliy harakatlar 2017-yildan boshlandi. Umumiy o'rta ta'limda eski davlat ta'lim standartlari (DTS) o'rnini bosadigan va ta'limga o'zgarishlar kiritiladigan Milliy o'quv dasturi ishlab chiqilmoqda. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi (MO'D) o'quv-me'yoriy hujjat bo'lib, u o'quv reja va fanlarning o'quv dasturlari, o'qitish metodologiyasi va baholashni ishlab chiqishga asos bo'ladi. U bo'yicha yaratilayotgan yangi darsliklar, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar, mashq daftarlari, o'quv-metodik materiallar ta'limni rivojlantirishga xizmat qiladi. U pedagogik amaliyotni va baholash yondashuvlarini qo'llab-quvvatlaydi va ushbu elementlarning barchasini birlashtirishga imkon beradigan dasturdir.

Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida 100 ta maqsad belgilab olingan. Undagi 5 ta maqsad va 18 ta vazifa bevosita umumiy o'rta ta'lim bilan bog'liq. Taraqqiyot strategiyasining 42-maqsadiga ko'ra, 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklar ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqilib, amalda joriy etiladi. Milliy o'quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan, 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar hamda mobil ilovalar yaratiladi. Milliy o'quv dasturi bo'yicha yangi metodikalarga o'qituvchilarni o'qitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026-yilga qadar jami 769 ta videodars yaratiladi. Umumta'lim maktablarida darslik va o'quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o'tkazish tizimi yo'lga qo'yiladi. Milliy o'quv dasturini joriy qilish bo'yicha ishlarni Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi amalga oshiradi. Xalq ta'limi vazirligining 2020-yil 31-martdagi "Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish to'g'risida"gi buyrug'i asosida xalqaro talablarga javob beruvchi umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish boshlangan. Uning loyihasi yuqori salohiyatli milliy va xalqaro ekspertlar, UNICEF, USAID va boshqa xalqaro tashkilotlarning maslahatchilari ishtirokida tayyorlandi. Bunda Finlandiya, Singapur, Koreya Respublikasi, Angliya kabi ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarning tajribalari o'rganildi.

Ushbu davlatlarning tajribalari o'rganilishiga ta'lim sifatini baholash xalqaro dasturlarining tadqiqotlari natijalari ham asos bo'ldi. Tanlab olingan davlatlarning PISA, PIRLS, TIMSS reytingidagi o'rinlari, bunday natijalarga erishish yo'llariga e'tibor qaratildi. Shu asosda xalqaro tajriba va andozalarga moslashtirilgan yangi o'quv dasturlari, darsliklar joriy qilinmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning 15 yoshli o'quvchilarning ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA – o'quvchilar yutuqlarini baholash xalqaro dasturi, Ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA)ning TIMSS – matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoringi dasturi tadqiqotlari natijalari e'tiborga molik. O'quvchilarni PISA, PIRLS, TIMSS xalqaro dasturlari imtihonlariga tayyorlash, tadqiqot natijalariga ko'ra zarur xulosalar chiqarish, ta'lim mazmuni va jarayoniga kerakli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu bois Milliy o'quv dasturi asosida

yangilanayotgan darsliklarga xalqaro baholash dasturlarining baholash mezonlari va mexanizmlariga javob beradigan, o'quvchilarni ana shu dasturlarning imtihonlariga tayyorlashga xizmat qiladigan materiallar ham kiritilyapti. Masalan, "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligidan o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan, PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlari talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlar joy olgan. Bunday topshiriqlar vositasida o'quvchida matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi. Matematika fani bo'yicha ham tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda yangiliklar kiritilyapti. Jumladan, matematika fanini o'qitishga xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, baholash me'zonlari va mexanizmlari mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda joriy etilmoqda. Biologiya fani bo'yicha esa PISA va TIMSS xalqaro baholash dasturlari talablariga mos keladigan, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari hamda mustaqil bajarishga va ijodiy, kreativ fikrlashga undovchi topshiriqlar ishlab chiqilmoqda. Milliy o'quv dasturi asosida tayyorlanayotgan boshqa fanlarning darsliklari, mashq daftarlari va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarda ham xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash, ularning o'lchov va me'zonlarini hisobga olish ko'zda tutilgan.

Mutaxassislar fikricha, "Milliy o'quv dasturi amaldagi davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlarini tanqidiy tahlil qilish, keng jamoatchilikning darsliklarning mazmuniga nisbatan bildirgan fikr-mulohazalari, ta'limning keyingi bosqichi hamda zamonaviy mehnat bozorining real talablari asosida, xorijiy davlatlarning ta'lim sohasida erishgan natijalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilmoqda".

Ilgarilari o'quv materiali asosan darslik bilan cheklangan bo'lsa, endi darslikdan tashqari o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, o'quvchi mashq daftari, multimedia vositalari va raqamli kontent ham taqdim etiladi. Bugungi kun o'quvchisi internetga oshno, zamonaviy texnika va texnologiyadan to'laqonli foydalana oladi. Demak, uni darsga, kitobga, bilimga qiziqtirish, e'tiborini egallash uchun zamonaviy yondashuv talab etiladi. Darsliklar bilan birga multimedia ilovalari va boshqa raqamli mahsulotlar ham ishlab chiqilayotgani bu yo'ldagi muhim qadamdir. Yangilanayotgan darsliklar va boshqa o'quv materiallari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga, ularda tanqidiy va ijodiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yoshlar esa mamlakatning ertangi istiqboli va taraqqiyotining hal qiluvchi kuchidir.

Prezidentimiz nutqida keltirilganidek, dunyo miqyosidagi keskin raqobatga bardosh bera oladigan Milliy ta'lim tizimini yaratish zarurati paydo bo'ldi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'limni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarish maqsadida ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi va ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish vazifalari belgilab berildi.

Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi 6 komponent – umumiy o'rta ta'limning malaka talablari, umumta'lim fanlarining konsepsiyalari, o'quv reja, fanlarning o'quv dasturlari, o'qitish metodologiyasi va baholash tizimidan iborat bo'ladi, – deydi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori Mehriniso Pardayeva. – Mazkur dasturni ishlab chiqish, ekspertiza va tajriba-sinovdan o'tkazish hamda bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish samaradorligini ta'minlash maqsadida yuqori salohiyatli milliy va xalqaro ekspertlar, jumladan, UNICEF, UCAID va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan xorijiy

konsultantlar bilan tizimli ishlash tashkil etildi.

Ekspertiza xulosalariga ko'ra ishchi guruh tomonidan Milliy o'quv dasturining barcha komponentlari takomillashtiriladi va uning asosida 2021-yilning 1-choragidan boshlab 1-, 2-sinflar uchun to'liq to'plamda, yangidan joriy etiladigan fanlar bo'yicha 1-6-sinflar darsliklarining yangi avlodi yaratiladi. Milliy o'quv dasturi 2021-2022 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich tajriba-sinovdan o'tkazilib, 2026-2027 o'quv yiliga qadar to'liq amaliyotga joriy etilishi kutilmoqda. Umumiy o'rta ta'limning tarixida ilk bor joriy etilishi kutilayotgan Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi amaldagi davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlarini tanqidiy tahlil qilish, keng jamoatchilikning darsliklarning mazmuniga nisbatan bildirgan fikr-mulohazalari, ta'limning keyingi bosqichi hamda zamonaviy mehnat bozorining real talablari asosida, xorijiy davlatlarning ta'lim sohasida erishgan natijalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilmoqda.

Mazkur dastur 6 ta komponentdan iborat bo'ladi:

1) umumiy o'rta ta'limning malaka talablari; 2) umumta'lim fanlarining konsepsiyalari; 3) umumiy o'rta ta'limning o'quv rejasi; 4) umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari; 5) umumta'lim fanlarini o'qitish metodologiyasi; 6) baholash tizimi.

Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish, ekspertiza qilish va tajriba-sinovdan o'tkazish hamda bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish samaradorligini ta'minlash maqsadida yuqori salohiyatli milliy va xalqaro ekspertlar, jumladan, UNICEF, USAID va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan xorijiy konsultantlar bilan tizimli ishlash tashkil etildi. Amaldagi davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini rivojlangan xorijiy davlatlarning o'quv-me'yoriy resurslari bilan qiyoslash orqali o'rganib chiqilmoqda, ilg'or tajribalardan kelib chiqqan holda Milliy o'quv dasturini ishlab chiqishda Singapur, Koreya Respublikasi, AQSH, Gongkong va Yaponiya kabi davlatlar tajribalaridan tashqari umume'tirof etilgan xalqaro baholash dasturlari talablari va metodologiyasi inobatga olinmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi va xalqaro ekspertlar tomonidan Milliy o'quv dasturining loyihasini ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda va 2020-2021 o'quv yilida hududiy xalq ta'limi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari hamda tegishli oliy ta'lim muassasalarida ekspertizadan o'tkazilishi belgilab olindi.

Ekspertiza xulosalariga ko'ra ishchi guruh tomonidan Milliy o'quv dasturining barcha komponentlari takomillashtiriladi va u asosida 2021-yilning birinchi choragidan boshlab to'liq to'plamda 1-,2-sinflar uchun darsliklarning yangi avlodi yaratiladi. Milliy o'quv dasturi 2021-2022 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich tajribasinovdan o'tkazilib, 2026-2027 o'quv yiliga qadar to'liq amaliyotga joriy etilishi kutilmoqda.

Har bir davrni o'zining zamonaviy talablari bo'ladi, ayniqsa, ta'lim sohasida. Ta'lim sohasi shunday sohaki, u doimiy yangilanib, takomillashtirib borishi zarur. Oxirgi 3 yilda respublikamizda ta'lim sohasida islohotlarning keskin va shiddat bilan olib borilishi, tanqidiy tahlil, muammolarni aniqlash va yechim topish, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish kabi yo'nalishlarga bag'ishlangan muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarning qabul qilinishi hamda pedagog kadrlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Prezidentimiz tomonidan xalq ta'limi tizimiga oid 6 ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning normativ-huquqiy asoslari mustahkamlandi. Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida

ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (VMQ 997, 08.12.2018 y.) qarori bilan: PIRLS — boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash uchun;

TIMSS — 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun;

PISA — 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

TALIS — rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun mo'ljallangan xalqaro baholash dasturlari bo'yicha tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi.

Konsepsiyada Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha 48 ta maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan bo'lib, ba'zi bir yo'nalishlarni ko'rib chiqamiz. Bular: O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoridan o'rin olishi; O'qituvchilarni zamonaviy malaka talablari asosida sinov (test)dan o'tkazish va kasbiy litsenziya berish (2030-yilda 20% o'qituvchi); Ingliz tilini bilish Yevropa Ittifoqi talablari C1-CEFR darajasiga muvofiq bilimga ega bo'lgan ingliz tili o'qituvchilari 2030-yilga kelib, jami ingliz tili o'qituvchilari soniga nisbatan 100%ni tashkil etishi; 2030-yilga kelib, barcha, ya'ni, jami o'quvchilar soniga nisbatan 100%, umumta'lim maktablari bitiruvchilari ingliz tilini bilish Yevropa Ittifoqi talablari B1-CEFR darajasiga muvofiq ingliz tilini o'zlashtirgan darajaga erishishi; Maktab direktorlari va ta'lim tizimidagi rahbarlar 2025-yilga qadar xalq ta'limi sohasi menejeri – boshqaruvchi ko'nikmalarini shakllantirish tayanch kursidan 100% o'tishi hamda 2030-yilga kelib, Xalq ta'limi sohasi menejeri kasbiy litsenziyasini olish uchun sinovdan 100% maktab direktorlari va ta'lim tizimidagi rahbarlar o'tgan bo'lishi; 2030-yilda barcha umumta'lim maktablari to'liq oliy ma'lumotli o'qituvchilar bilan ta'minlanishi; 2030-yilda umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilar orasida oliy toifali o'qituvchilar, jami o'qituvchilar soniga nisbatan 10% ni: birinchi toifali o'qituvchilar 25% ni, ikkinchi toifali o'qituvchilar 50% ni tashkil etishi; Umumta'lim maktab o'quv dasturlari, darsliklarga STEAM yondashuvini integratsiya qilish, ushbu yo'nalishda trenerlarni tayyorlash, maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish kabi yo'nalishlarda ishlar tashkil etish natijasida STEAM yo'nalishidagi fanlarni (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, san'at va dizayn, matematika) o'qitish bo'yicha o'quv kurslaridan o'tgan pedagoglar, jami tabiiy va aniq fanlar o'qituvchilari soniga nisbatan 50% ni tashkil etishi belgilanganidir.

Xulosa shuki, jahon standartlari va o'zbekona shamoyilga ega Milliy dasturning ishlab chiqilishi ta'lim-tarbiya tizimida "o'quvchi, o'qituvchi, ota-ona va davlat" kabi oltin to'rtlikning zamonaviy taraqqiyot yo'lini belgilab beradi; xorijiy davlatlararo raqobatbardoshlik darajasini oshiradi; bu jarayonga taalluqli barcha fuqarolarning ish faolligi osonlashtiradi; muayyan tizimlilik asosida samadorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan ta'lim to'g'risida qonuni <http://lex.uz/docs/-5013007>.

2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi nizom <http://lex.uz/docs/-4312785>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" gi PF-134-sonli farmoni.
4. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. – Toshkent: O'qituvchi, 2000.
5. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. – T.: "Turon-Iqbol" nashriyoti. 2006.
6. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.-Toshkent 2006 yil. - 159 b.
7. Shodiyev N. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv uslubiy qo'llanma. Samarqand 2005 yil. 31- 41 b.
8. Munavvarov A. Pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 201 b.

